

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**60111400 – O'zbek tili va adabiyoti bakalavriat ta'lim**  
**yo'nalishining malaka talablari**

Toshkent



## **ISHLAB CHIQLGAN VA KIRITILGAN:**

- Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

## **TASDIQLANGAN BA AMALGA KIRITILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy, o'rta maxsus, professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2021-yil 24 - 08 \_\_\_\_\_ dagi 4 -sonli yig'ilishida ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 25 - 08 \_\_\_\_\_ dagi 365 -sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

## **JORIY ETILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.

Mazkur Malaka talabi "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasiga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

1.	60111400 – O'zbek tili va adabiyoti bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi .....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1.	60111400 – O'zbek tili va adabiyoti bakalavriat ta'lim yo'nalishi malaka talabining qo'llanilishi .....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari .....	4
1.2.	60111400 – O'zbek tili va adabiyoti bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi .....	5
1.2.1.	60111400 – O'zbek tili va adabiyoti bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari .....	5
1.2.2.	60111400 – O'zbek tili va adabiyoti bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari .....	5
1.2.3.	60111400 – O'zbek tili va adabiyoti bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari .....	6
1.2.4.	60111400 – O'zbek tili va adabiyoti bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari .....	6
2.	60111400 – O'zbek tili va adabiyoti bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar .....	9
2.1.	Umumiy kompetensiyalar .....	9
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar .....	10
	Bibliografik ma'lumotlar .....	12
	Kelishuv varag'i .....	13

## **1. 60111400 – O'zbek tili va adabiyoti bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi.**

60111400 – O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi.**

#### **1.1.1. 60111400 – O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talabi 60111400 – O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.**

Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari quyidagilardan iborat:

– mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda o'quv reja va fan dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish hamda yangilash uchun mas'ul oliy ta'lim tashkilotlarining professor-o'qituvchilari;

– ta'lim yo'nalishining o'quv reja va fan dasturlarini o'zlashtirish bo'yicha o'quv hamda tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi barcha xodimlari va talabalari,

– o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotlarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv-uslubiy boshqarmasi (bo'lim) boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari);

bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi, Davlat attestatsiya va imtihon komissiyalari;

– oliy ta'lim tashkilotni moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

– oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;

– ta'lim yo'nalishining o'quv rejasini va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasining talabalari;

– ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

– kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning otalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

**1.2. 60111400 – O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

**1.2.1. 60111400 – O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.**

**60111400 – O‘zbek tili va adabiyoti** pedagogika sohasidagi yo‘nalish bo‘lib, u umumiy o‘rta ta’lim maktablari va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari uchun o‘zbek tili va adabiyoti bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida foydalaniladigan fanlar, pedagogik faoliyat vositalari, usullari, metodlari, O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti va boshqa tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida mustaqil tadqiqotchi sifatida ilmiy-pedagogik tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanish, xorijiy mamlakatlarda tashkil qilingan o‘zbek tilini o‘rgatuvchi kurslarda, o‘zbek tili va madaniyati markazlarida faoliyat ko‘rsatish, ommaviy axborot vositalari, davlat boshqaruvi organlari, boshqa davlat va nodavlat muassasalarida, vazirlik va tashkilotlar rahbarlarining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi sifatida kasbiy faoliyat yuritish kabi kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

**1.2.2. 60111400 – O‘zbek tili va adabiyoti bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari.**

**60111400 – O‘zbek tili va adabiyoti** bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari quyidagilardan iborat:

o‘zbek tili: nazariy va amaliy, sinxron, diaxron, ijtimoiy-madaniy va dilektologik aspektlarda; nutq madaniyati va uslubiyati, davlat tilida ish yuritish;

- zamonaviy o‘zbek tili va yozuvi;

- adabiyot: badiiy adabiyot va xalq og‘zaki ijodi tarixiy va nazariy aspektlarda, jahon adabiyoti;

- ta’limni boshqarish va pedagogik jarayonlar;

- o‘zbek tili va adabiyoti ta’limi jarayonlari;

- o‘qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari va metodlari, ta’limning nazariy masalalari;

- o‘qitish metodikasi;

- loyihalashtirish asosida o‘quv jarayonini boshqarish texnologiyalari, ma’ruza, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini loyihalashtirish va tashkil etish jarayoni, shaxsiy va kasbiy axborot maydonini shakllantirish jarayoni, maktabdan tashqari ta’lim muassasalari ta’lim-tarbiya jarayoni;

- ta’lim sohasidagi muammolar va ularning yechimlarini topishni tashkil etish jarayonlari;

– o‘zbek tili va adabiyot ta’limi hamda uning samaradorligini oshirish jarayonlari;

– davlat tilida ish yuritish jarayonlari;

– ommaviy axborot vositalari faoliyati jarayonlari;

– mos ixtisoslik bo‘yicha ilmiy-tadqiqot jarayonlari, ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlari jarayoni.

### **1.2.3. 60111400 – O‘zbek tili va adabiyoti bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.**

60111400 – O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

– pedagogik;

– ilmiy-tadqiqot;

– ma’naviy-ma’rifiy;

– tashkiliy-boshqaruv;

– axborot-tahliliy faoliyat.

### **1.2.4. 60111400 – O‘zbek tili va adabiyoti bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.**

60111400 – O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

#### **Pedagogik faoliyati bo‘yicha:**

– o‘zbek tili va adabiyotini, uning o‘ziga xos xususiyatlari, ilmiy-nazariy, falsafiy-estetik asoslarini, zamonaviy ta’lim texnologiyalarini chuqur o‘zlashtirish;

– o‘zbek tili va adabiyotining boy imkoniyatlaridan foydalana olish, buning uchun o‘z ustida tinimsiz ishlash, mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini shakllantirish;

– o‘zbek tili va adabiyotini umumiy o‘rta ta’lim maktablari, professional ta’lim, xorijiy mamlakatlarda tashkil qilingan o‘zbek tili kurslari, markazlarida o‘qitishning samarali usullarini chuqur egallashi va undan foydalana olish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

– rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta’lim tizimi bilan yaqindan tanishgan holda ulardagi o‘qitishning ilg‘or usullarini ta’lim jarayoniga tatbiq qila olish;

– xorijiy tillarni (rus, ingliz, arab yoki fors tillarini) chuqur o‘zlashtirishi va undan kasbiy faoliyatda foydalana olish;

– ta’lim mazmunini belgilash ramoyillari va mezonlariga rioya etish, o‘quv materiallarini tanlash va tizimlashtirishga doir zamonaviy yondashuvlarni hisobga olish, o‘quv materiallarini modelashtirish malakasiga ega bo‘lish;

– ta’lim-tarbiya jarayoni tarkibiy qismlari (maqsad, natija, mazmun, shakl, metod va vosita)ning o’zaro aloqadorligi va umumiyligini hisobga olishi;

– ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning asosiy va yordamchi shakllaridan umumli foydalanish;

– ta’lim-tarbiyaning xilma-xil metodlarini, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni oqilona tanlay olish, ijodiy yondashuv asosida metod va texnologiyalarning milliy mentalitetga mosligini ta’minlash;

– yaxlit pedagogik jarayonning umumiy qonun, qonuniyat va tamoyillariga amal qilish, ta’lim-tarbiya jarayonida gnescologik, tashkiliy, psixologik, didaktik, sotsiologik va kibernetik qonuniyatlarning uyg’unligiga erishish;

– o’quvchilarning bosh vaqtini samarali tashkil etish va o’tkazishi kabi kasbiy vazifalarni bajarish.

#### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

– ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda o’zbek tilini o’qitish metodikasiga oid mavzularda tadqiqotlar olib borish;

– o’zbek tili, o’zbek adabiyoti, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, chog’ishtirma tilshunoslik sohasida olingan nazariy va amaliy bilimlarni qo’llash orqali ilmiy tadqiqotlar olib borish;

– o’z tadqiqoti mavzusiga oid ingliz, rus, arab va fors tillaridagi manbalarni o’qish, tarjima qilish va amalda qo’llash;

– eski o’zbek tilida yozilgan qo’lyozma manbalarni o’qish va tatbiq qila olish;

– til va adabiyot o’qitishning samarali metodlariga oid xorijiy davlatlardagi ilmiy to’plamlar, ilmiy-tadqiqotlarni o’rganish;

– internet tarmog’ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo’nalgan holda qidirish va topish;

– kasbiy faoliyat obyekti yo’nalishiga mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini o’rganish;

– ma’lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo’yicha ilmiy ma’lumotlarni tizimli tahlil qilish;

– ilmiy-tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etish kabi kasbiy vazifalarni bajarish.

#### **Ma’naviy-ma’rifiy faoliyatida:**

– ma’naviy-ma’rifiy ishlarini rejalashtira olish, uni tashkil etish metodikasini egallash;

– o’quvchilarda mafkuraviy va axborot xurujlariga, hozirgi davrdagi eng global muammo – ommaviy madaniyatga qarshi immunitetni yuzaga keltirish metod va texnologiyalarini bilish;

– globallashtiruv sharoitida kechayotgan jarayonlarda milliy til va adabiyotning o’rni va ta’siri haqida tushuntirish ishlarini olib borish, bu orqali o’quvchilar ongiga

o'zni va ta'siri haqida tushuntirish ishlarini olib borish, bu orqali o'quvchilar ongiga milliy g'oya va milliy g'urumi singdirish;

- vazirlik va tashkilotlar rahbarlarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha malaka va tajribaga ega bo'lish;

- mahallalarda ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha suhbatlar o'tkazish;

- milliy urf-odat va marosimlarni o'tkazishda, umuminsoniy qadriyatlar, mehr-oqibat, bag'rikenglik, vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarni ochib berish kabi kasbiy vazifalarni bajarish.

#### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

- pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalangan holda ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish;

- jamoada ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish;

- kasbiy muammolar yechimini topish;

- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;

- fikrlar xilma-xilligi sharoitida boshqaruv qarorini qabul qilish;

- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish hamda uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijasini baholash kabi kasbiy vazifalarni bajarish.

#### **Axborot-tahlil faoliyati bo'yicha:**

- tashkilotning ichki hujjat aylanish tizimining ishlashi to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilish, turli ko'rsatkichlar bo'yicha ma'lumotlar bazasini yuritish va tashkiliy loyihalar ishtirokchilariga axborot ta'minotini yaratish ko'nikmalariga ega bo'lish;

tashkilotni rivojlantirishga yo'naltirilgan loyihalarni amalga oshirishda (korxonalar, davlat yoki mahalliy boshqaruv idorasi) tashqi aloqalarni kengaytirish va tajriba almashish uchun zarur ma'lumot to'plash tizimlaridan foydalangan holda sheriklar bilan munosabatlarni tashkil etish va qo'llab-quvvatlash;

- til o'rgatish jarayonida biznes-rejalarni modellashtirish va biznes jarayonlarini tashkilotlarning amaliy faoliyatida qayta tashkil etish usullaridan foydalanish;

- xorijiy hamkorlar bilan yozishmalar olib borish, elektron hujjatlar yuritish;

- ijtimoiy tarmoqlarda, OAVda o'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va obro'sini oshirish choralarini ko'rishga oid targ'ibot materiallarini tayyorlash kabi kasbiy vazifalarni bajarish.

#### **Quyidagi bakalavr darajasi kvalifikatsiyasi beriladi:**

- Pedagog, o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisi.



## **2. 60111400 – O'zbek tili va adabiyoti bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.**

### **2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

60111400 – O'zbek tili va adabiyoti bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning umumiy kompetensiyalari quyidagilardan iborat:

– davlat siyosatining dolzarb masalalarini, fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish, O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtayi nazarga ega bo'lish, O'zbekistonning eng yangi tarixi davridagi islohotlar mazmuni chuqur anglash;

– olgan bilimlarini keng falsafiy mushohada qila olishi, yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish, o'quv mashg'ulotlarida o'quvchilarda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, mehmuruvvat, bag'rikenglik, vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarini shakllantirishga e'tibor qaratish;

– ingliz tilida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mahiyatini tushunish, kasbiy faoliyat doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lish hamda ular yordamida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lish;

– rus tilini bilish orqali MDH mamlakatlarida tashkil qilingan o'zbek tilini o'rgatuvchi kurslarda, o'zbek tili va madaniyati markazlarida faoliyat ko'rsatish malakasini egallash;

– sharq tillaridan biri (arab, fors)ni o'rganish orqali islom dunyosi bilan xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yish, ommaviy notiqlik qilish, muzokaralar, uchrashuvlar, xalqaro yozishmalar va elektron aloqalarni olib borish qobiliyati;

– intellektual va ma'naviy dunyoqarashni rivojlantirish orqali axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilish, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

– ta'limning standart vazifalarini multimedia, axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda hal qilish qobiliyatiga ega bo'lish.

– o'zini jismoniy chinqirishning bilim, ko'nikma va qobiliyatlari to'g'risida ilmiy tassavvur hamda e'tiqodga ega bo'lish.

– darsni tashkil etishda yosh fiziologiyasini to'liq o'zlashtirish, sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tassavvur hamda e'tiqodga ega bo'lish;

## 2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

60111400 – O'zbek tili va adabiyoti bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalari quyidagilardan iborat:

– adabiyotshunoslikning fan sohasi sifatida shakllanishi, ushbu sohadagi turli maktablar, olimlarning konsepsiya va ilmiy yondashuvlarini bilish, adabiyotshunoslikdagi tizimli yondashuv usullarini tahlil jarayoniga tatbiq etish;

– tilshunoslikning fan sohasi sifatida shakllanishi, ushbu sohadagi turli maktablar, olimlarning konsepsiya va ilmiy yondashuvlarini bilish, tilshunoslikdagi tizimli yondashuv usullarini tahlil jarayoniga tatbiq etish;

– o'zbek folklori matnlarini tahlil va rasnif qila olish hamda ulardan ta'lim jarayonida foydalanish malakasiga ega bo'lish;

– hozirgi o'zbek adabiy tilining fonetik, grafik, leksik, morfologik, morfemik, sintaktik xususiyatlarini to'la o'zlashtirib, o'zbek tilining nazariy masalalarida o'zbek tili va adabiyoti ta'limi jarayonida foydalanish;

– o'zbek adabiyotining barcha davrlarini mukammal o'rganib, o'zbek adiblarining asarlarini tahlil etish ko'nikmasiga ega bo'lish;

– o'zbek tilining sotsiolingvistik va etnosotsiopragmatik xususiyatlarini tadqiq eta olish hamda uni ta'lim jarayoniga tadbiq etish;

– o'zbek tili va adabiyoti ta'limi jarayonida psixologiyaning yutuqlaridan unumli foydalana olish, o'quvchilarning psixologik holatini tahlil eta olish ko'nikmalariga ega bo'lish;

– o'zbek dialektologiyasi doirasida o'zbek shevalari, dialektlari haqida bilimga ega bo'lish, o'zbek shevalari lug'atlaridan foydalanish olish ko'nikmasiga ega bo'lish hamda ulardan o'zbek tili ta'limi jarayonida foydalana olish;

– eski o'zbek yozuvidagi matnlarni o'qish va ularni matnshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etish ko'nikmasiga ega bo'lish, o'zbek adabiyotining qadimiy qo'lyozmalarini o'rganish malakasiga ega bo'lish;

– umumiy pedagogikaning umumiy qoidalarini o'zlashtirish, o'zbek tili va adabiyoti ta'limida bu qoidalardan foydalanish, pedagogik nuqtayi nazardan darsni to'g'ri tashkil etish ko'nikmasiga ega bo'lish;

– jahon adabiyotining barcha davrlardagi hadiy asarlarini tahlil etish, adabiyot darslarida ularni o'qitish va o'zbek adabiyoti bilan bog'lab tushuntirish malakasiga ega bo'lish;

– o'zbek tilining tadrijiy rivojlanishi, tarixi, taraqqiyoti haqida nazariy bilimga ega bo'lish, ushbu nazariy ma'lumotlardan o'zbek tili darslarida foydalana olish;

– o'zbek tili fanini o'qitishda namunaviy innovatsion texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo'llash, ona tili fanini o'qitishda, mashg'ulotlarda mavzuni o'quvchilar yosh xususiyatidan kelib chiqqan holda o'tish usullari borasida ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko'nikmalarni egallash, zamonaviy pedagogik

texnologiyalar, o'qitishning ilg'or va samarali usullarini tanlay olish, amaliyotga tatbiq qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;

– adabiyot fanini o'qitishda namunaviy innovatsion texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo'llash, mashg'ulotlarda mavzuni o'quvchilar yosh xususiyatidan kelib chiqqan holda o'tish usullari borasida ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko'nikmalarni egallash, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o'qitishning ilg'or va samarali usullarini tanlay olish, amaliyotga tatbiq qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;

– ona tili ta'limining tashkil etilish mazmuni, o'quvchilar egallashi zarur bo'lgan bilimlar tizimi, ilmiy-nazariy bilimlarga muvofiq keladigan ko'nikma va malakalar tizimi, ijodiy faoliyat usullari, o'quvchi – o'qituvchi o'rtasidagi munosabatlar tizimi haqida ma'lumotga ega bo'lish;

– Navoiy ijodi namunalarini o'qish, tushunish, o'rgata olish malakasiga ega bo'lish, Navoiy hayoti va ijodi haqidagi nazariy qarashlarni bilish;

– o'zbek tili va adabiyoti fani bo'yicha maktab darsliklari haqida umumiy tushunchaga ega bo'lish, darsliklarni tahlil etish, ulardagi yutuq va kamchiliklar haqida yetarli mulohazaga ega bo'lish;

– maktablarda o'qitiladigan "Tarbiya" fani, uni o'qitish metodikasi, bu fanning yoshlar kamolotidagi o'rni haqida nazariy bilimga ega bo'lish, maktab o'quvchilarida umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, mehr-muruvvat, bag'rikenglik, vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishga e'tibor qaratish;

– ona tili fanidan maktab darsliklari topshiriqlari haqida tushunchaga ega bo'lish, ularni yaratish va qo'llay olish metodikasini o'zlashtirish;

– testologiya asoslari haqida nazariy bilimga, o'zbek tili va adabiyoti fani bo'yicha test tuzish, ulardan dars jarayonida ununli foydalana olish metodikasiga ega bo'lish;

– hadiy asarni, adabiy va boshqa matnlarni badiiy va filologik tahlil etish hamda uning metodlarini dars davomida qo'llay olish;

– mutolaa va nutq madaniyati, ifodali o'qish, notiqlik san'ati sirlarini mukammal o'rganish va undan o'zbek tili va adabiyoti ta'limi jarayonida foydalanish;

– o'zbek mumtoz adabiyoti namunalarini aruz vazni qoidalari nuqtayi nazaridan o'rganish, maktab adabiyot darsliklaridagi mumtoz adabiyot namunalarini tahlil etish va buning usullari, metodlarini adabiyot darslarida qo'llash malakasiga ega bo'lish;

– davlat tilida ish yuritish, hujjatchilik sohasida yetarli malakaga ega bo'lish;

– o'zbek tili, adabiyot, ona tili va adabiyotini o'qitish metodikasi sohalari bo'yicha ilmiy maqola va kurs ishilarini yozish ko'nikmasiga ega bo'lish;

– yozma nutq me'yorlari, talaffuz va imlo qoidalarini to'la o'zlashtirish, ulardan ish jarayonida foydalana olish ko'nikmasiga ega bo'lish;

– xorijiy va qardosh mamlakatlarning o'qitish tizimi haqida yetarli nazariy

ma'lumotlarga ega bo'lish;

– maktab darsliklaridagi mumtoz asarlarni sharhlab o'qitish metodikasini o'rganish, tasavvuf va adabiyotning diniy falsafiy asoslari haqida ilmiy tasavvurga ega bo'lish;

– o'zbek bolalar adabiyoti namunalarni o'rganish, tahlil etish va ulardan ta'lim jarayonida foydalana olish malakasiga ega bo'lish;

– lingvistik lug'atlar yaratish, ular bilan ishlash hamda ona tili darslarida ulardan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lish;

– o'zbek tili va adabiyoti ta'limi va metodikasini psixolingvistik nuqtayi nazardan o'rganish malakasiga ega bo'lish.

### Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

#### Tayanch so'zlar:

Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv reja, kompetensiya, kredit, modul, kasbiy faoliyat turlari, amaliyot obyekti, kadrlar sifati, kasbiy faoliyat turi, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturi (bakalavriat dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, o'zbek tilini o'qitish metodikasi, hozirgi o'zbek tili, nutq, mc'yor, o'zbek adabiyoti, til o'rganish, til o'rganishning psixolingvistik asoslari, yuklama, yuklama hajmi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellashtirish, ilmiy boshqarish, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellashtirish, fan ishchi dasturlari, zamonaviy o'lchov asboblari, ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya, kasbiy faoliyat turi, pedagogik faoliyat turi, kompetensiya, umumiy kompetensiya, kasbiy kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturlari, profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv davri, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, sifati baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy-tadqiqot jarayoni.

**KELISHUV VARAG'I**

**ISHLAB CHIQUILDI:**

**Alisher Navoiy nomidagi  
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti**



Rektor \_\_\_\_\_

Sh. Sirojiddinov

2021-yil \_\_\_\_\_

**KELISHILDI:**

**O'zbekiston Respublikasi  
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi  
Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va  
ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazi**



Direktor v. b. \_\_\_\_\_

M. Esonov

2021-yil \_\_\_\_\_

**O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi  
vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim  
markazi**



Direktor \_\_\_\_\_

Sh. Sattorov

2021-yil \_\_\_\_\_